

# Yashil

## IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 132 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oly Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliv ta'lif muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish .....	16
<b>Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynudinova Umida Djalolovna</b>	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash .....	20
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	
Transformatsiya chelovecheskogo kapitala v usloviyah cifrovizatsii i vnedreniya iskusstvennogo intellekta v bankovskuyu ekosistemu .....	24
<b>S.S. Ismailov</b>	
"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili .....	32
<b>Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich</b>	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari .....	41
<b>Sh.B. Donayev</b>	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir .....	45
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichilagini tashkil etish.....	49
<b>Idrisov Alisher Otajonovich</b>	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari .....	53
<b>Sultanov Maximud Axmedovich</b>	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
<b>Amirdjanova Sitora Sunnat kizi</b>	
Faktory, vliyayushchie na uspeshnoe funktsionirovaniye skandinavskoy modeli razvitiya ekonomiki .....	61
<b>Bohidova Mehri Xasanovna</b>	
Analiz zarubежnogo opyta metodologii otsenki finansovogo potentsiala razvitykh stran .....	69
<b>Buranova Lola Vahobovna</b>	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi .....	78
<b>Babamatov Tolib Xakimovich</b>	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarinining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari .....	83
<b>S.A.Karabayev</b>	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari .....	90
<b>Yusupov Aziz Shuxratovich</b>	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi .....	95
<b>Gulbayeva Feruza Islamovna</b>	
Oliv ta'lif muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
<b>Sherov Alisher Bakberganovich</b>	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilanigan gazlamalar tahlili .....	107
<b>Sayidova Maftuna Hamroqul qizi</b>	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	111
<b>Umarova Malika Baxtiyarovna</b>	
Otsenka vliyaniya nalogovoy sistemy na finansovoe sostoyaniye organizacij .....	116
<b>Umida Yoldasheva</b>	
Teoreticheskoe obosnovanie internet-marketinga v sozialnyx setyax .....	120
<b>Aripkhodjaev Saidamir Fuzuliddinovich</b>	

# MUNDARIJA CODERJAHNIYE CONTENTS



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish ..... 127  
**Ismoilov Sherzod Dilshodovich**



# DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA MAVJUD KAMCHILIKLAR VA ULARNING YECHIMLARI

**Sh.B. Donayev**

TDTU mustaqil izlanuvchisi



**Annotatsiya:** Maqolada don mahsulotlari korxonalarida amalga oshirilayotgan ijobjiy o'zgarishlar va chora-tadbirlar bilan bir qatorda muammo va kamchiliklar ham ko'rib chiqilgan bo'lib, ularga samarali yechim topish yo'llari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** don mahsulotlari, mahsulot ishlab chiqarish, tannarx, iqtisodiy omillar, tarmoq omillar, tarmoqlararo omillar, ekologik omillar, SWOT tahlili.

**Abstract:** In the article, along with the positive changes and measures implemented in grain products enterprises, problems and shortcomings were considered, and ways to find effective solutions to them were considered.

**Key words:** grain products, product production, cost, economic factors, industry factors, inter-industry factors, environmental factors, SWOT analysis.

**Аннотация:** В статье, наряду с положительными изменениями и мерами, реализуемыми на предприятиях зерновых продуктов, рассмотрены проблемы и недостатки, а также пути их поиска эффективных решений.

**Ключевые слова:** зерновая продукция, производство продукции, себестоимость, экономические факторы, отраслевые факторы, межотраслевые факторы, экологические факторы, SWOT-анализ.

Sanoat korxonalari, xususan, don mahsulotlari korxonalari faoliyatining ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishda, eng avvalo, korxonalar missiyasining tog'ri qo'yilishi hamda unga erishishda amalga oshirilayotgan ishlar ko'rib chiqiladi. Iqtisodiy samaradorlik korxonadagi barcha yo'nalishlarning barqaror va uzlusiz faoliyatining yakuniy ko'rsatkichi bo'lib, korxonadagi biror xatolik, kamchilik yoki nuqsonlar, o'z navbatida, samaradorlikda o'z aksini topadi.

"G'alla Alteg" AJ ning asosiy faoliyat yo'nalishi bug'doy uni va omuxta yem ishlab chiqarish bo'lganligi tufayli mahsulotning asosiy xomashyosi bo'lgan bug'doy ishlab chiqarish segmentidagi mavjud qiyinchilik va to'siqlar haqida ham to'xtalib o'tish lozimligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohadagi asosiy muammolar, eng avvalo, xomashyo ta'minoti bilan bog'liq bo'lib, mamlakatimizning geografik joylashuvi va iqlim sharoiti tufayli bug'doyning kimyoviy, fizik xossalari va tuzilmasining yildanyilga o'zgarishi, undan tayyorlanuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq muammolarni yaratadi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, sohadagi muammolardan asosiysi bo'lgan un maydalashda tegrimchilar ba'zi hollarda 14-16 foiz namlik bo'lgan bug'doydan foydalanishlariga to'g'ri keladi va bu maydalash jarayonida katta yo'qotishlarga olib keladi. Shuningdek, yovvoyi o'tlar bilan bog'liq holatlar juda keng tarqalgan muammo manbai bo'lib, bug'doyni tozalashda juda ko'p qo'shimcha kuch va resurslarni talab qiladi. Yana keng tarqalgan muammolar qatorida zamburug' va u bilan chaqiriladigan kasalliklarni ko'rsatish mumkin. Albatta, bu kasalliklarni bug'doy urug'ini kimyoviy vositalar bilan ishlov berish orqali oldini olish mumkin, shunga qaramay, yuqorida holat xomashyoni maydalashda sezilarli muammolarni keltirib chiqaradi. Un ishlab chiqarishda katta qiyinchilik tug'diruvchi yana bir omil zang bo'lib, yillar davomida unga qarshi kurashish lozim<sup>1</sup>.

Shuningdek, o'z yechimini kutayotgan muammolardan yana biri donni chuqr qayta ishlash hamda chidamli, hosilkor seleksiya navlarini ishlab chiqishdir. Mamlakatimizdagi donni chuqr qayta ishlash jarayoni hali rivojlanishning dastlabki bosqichida ekanligi, ushbu muammoni hal qilish nafaqat donni qayta ishlash jarayoniga, balki mikrobiologiya sanoatini rivojlantirishga, biomateriallar, vitaminlar va bioyoqilg'i ishlab chiqarishga katta investitsiyalar kiritish bilan bog'liqligi bilan xarakterlanadi.

<sup>1</sup> H.Snyder. Flour milling problems//THE JOURNAL OF INDUSTRIAL AND ENGINEERING CHEMISTRY Vol. 8, No. IO. 937-p.



Umumiy ko'rinishda don mahsulotlari segmentidagi muammolarning tasniflanishi asosiy 4 guruhga bo'linadi. Tadqiqotchilar A. Kutaev va boshqalar don mahsulotlari segmentidagi mavjud muammolarni RF misolida quyidagicha tasniflashgan:



**1-rasm.** Don mahsulotlarini yetishtirishga ta'sir qiluvchi omillar va muammolar<sup>2</sup>.

Iqtisodiy nuqtayi nazarga ko'ra:

Mamlakatda don mahsulotlari iste'molining oshib borayotganligi tufayli don ishlab chiqarish hajmining unga bo'lgan umumiy talabga nisbatan pastligi .

Mamlakat bug'doy importiga qaramligining oshib borishi.

Savdo to'siqlari.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning mukammal emasligi.

Iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlarining pastligi

Ushbu sanalgan muammolarga O'zbekiston nuqtayi nazaridan yildan yilga suv va yer resurslari hamda iqlim sharoiti sifati tufayli bug'doy yetishtirish hajmining kamayib borishini ham kiritish mumkin.

Tarmoq nuqtayi nazariga ko'ra:

Don mahsulotlari segmentida xarajatlarning o'sishi.

Don mahsulotlari va chorvachilik tarmoqlarida nomutanosiblikning mavjudligi.

Mamlakat agrosanoat majmuasining don va ozuqa mahsulotlarini yetishtirishda import qilinadigan urug'lik materialiga bog'liqligi.

Don yetishtirishda zarur ilg'or yechimlar va texnologiyalarning yo'qligi.

Don sifatining pasayishi.

Tuproq unumdorligining pasayishi; .

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligini pasaytirish.

Dehqonchilikning intensiv texnologiyalaridan foydalanish.

Don narxining o'zgaruvchanligi.

Donni chuqr qayta ishlashning yo'qligi.

Logistik provayderlarining yetishmasligi.

Ekologik nuqtayi nazarga ko'ra, noqulay iqlim sharoitlarini ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston sharoitida ushbu guruha suv zaxiralaring yetishmasligi, yer va suv resurslarining ifloslanishi, charchashi, eroziyasi hamda suvsizlik tufayli bug'doy holatining yuqori darajada emasligini kiritish mumkin.

Tarmoqlararo nuqtayi nazariga ko'ra:

Oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmaganligi.

Port terminallarining sig'imi yetarli emasligi;

Don vagonlari yetarli emasligi.


Don saqlash elevator quvvatlarining yetishmasligini ko'rsatish mumkin.

Afsuski, muttasil oshib borayotgan aholining talabini qondirish sharti bilan barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarish muammosining oddiy yechimlari yo'q. Iqlim o'zgarishi, ifloslanishning ko'payishi, aholi sonining oshib borishi, ovqatlanishning o'zgarishi va oziq-ovqat mahsulotlarining inson salomatligiga ta'sirini hisobga olish kerak bo'ladi. Mahalliy darajada esa yuqorida keltirilgan qiyinchiliklarning oldini olish, yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni hal qilishda don mahsulotlari korxonalarida asosiy iqtisodiy kategoriylar bo'yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligi texnologiyalari va oziq-ovqat ishlab chiqarish zanjirlarida innovatsi-

<sup>2</sup> Andrey Kutaev, Larisa Akifieva and Olga Zubrenkova. Problems and factors of grain production in the conditions of digital economy development// SHS Web of Conferences 141, 01017 (2022) MTDE 2022 <https://www.shs-conferences.org>




yalarni rivojlantirish talab etiladi. Quyidagi rasmda tadqiqot obyekti bo'lgan "G'alla-Alteg" AJ va O'zbekistondagi yirik don majmuasi bo'lgan "O'zdonmahsulot" AJ da 2023-yilda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumot keltirilgan.



2-rasm. "O'zdonmahsulot" AJ korxonalarida hamda "G'alla-Alteg" AJ da 2023-yilda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish ko'rsatkichlarining bajarilishi, mln so'm

Manba: "O'zdonmahsulot" AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Ko'rish mumkinki, "O'zdonmahsulot" AJ ning tarkibiga kiruvchi 39 nafar korxonalar bo'yicha 108251,8 so'm miqdoridagi jami xarajatlardan 11912,9 mln so'm iqtisod qilishga erishilgan. Bu umumiy hisobda barcha xarajatlarning 11% ni tashkil etadi. "O'zdonmahsulot" AJning eng katta xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirilgan band bu boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlari sonini optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'lib, bu yo'nalishda umumiy hisobda 1905,9 mln so'mlik tejamga erishilgan. Energiya resurslarini tejash, boshqa turdag'i xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan choralar ham muhimlilik darajasiga ko'ra yuqori pog'onalarda bo'lib, 2023-yil so'nggiga ko'ra, 3759,2 mln.so'm tejalgan. "G'alla-Alteg" AJ da xarajatlarni kamaytirish bo'yicha amaliy ishlar barcha yo'nalishlar bo'yicha barqaror sur'atlarda amalga oshirilgan bo'lib, asosiy tejamkorlikni ta'minlovchi omil sifatida e'tibor boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlari sonini qisqartirishga qaratilgan bo'lib, ushu chora-tadbirlar natijasida 220.1 mln so'mlik tejamga erishilgan (2-rasm).



3-rasm. "G'alla Alteg" AJda 2023-yilda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish ko'rsatkichlarining bajarilishi, %.




Manba: "O'zdonmahsulot" AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, "G'alla Alteg" AJda xarajatlarni qisqartirish barcha yo'nalishlarda teng sur'atlarda yo'lga qo'yilgan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich mahsulot tannarxida bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlari sonini qisqartirish xarajatlarini 35%ga kamaytirishga qaratilgan, mahsulot sifatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi xomashyo va materiallar uchun xarajatlarni optimallashtirish va asosiy fondlar samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirishga sarflanuvchi xarajatlarning faqatgina 3%ini iqtisod qilishga erishilgan (3-rasm).

2023-yilda tannarxni kamaytirish bo'yicha qabul qilingan rivojlanish Strategiyasi doirasida "G'alla Alteg" AJning mavjud holatini inobatga olgan holda SWOT tahlilini o'tkazib, Strategiya shakllantirishni maqsadga muvofiq deb topdik. "G'alla Alteg" AJ misolida don mahsulotlari korxonalari uchun rivojlanish strategiyasi ishlab chiqamiz. Buning uchun, eng avvalo, korxonaning SWOT tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv asosida biz korxonaning yutuqlari nimada ekanligi, zaif taraflari va oldinda uni kutuvchi qanday pessimistik prognozlar mavjudligi, shuningdek, uning imkoniyatlari nimalardan iborat ekanligini aniqlaymiz hamda korxonaning kelgusida nimalarga ahamiyat berishi lozimligini tadqiq qilamiz.

Korxonaning SWOT tahlili klassik turga ko'ra quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi (4-rasm):



4-rasm. "G'alla-Alteg" AJning SWOT tahlili

Manba: korxona ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va bozor tendensiyalaridan oldinda bo'lish uchun tadqiqot va ishlalmalar uchun resurslarni taqsimlash, shuningdek, un va omuxta yem mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yangi texnologiyalar va texnikani o'rganish uchun ilmiy muassasalar yoki tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik qilish zarur. Innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan kompaniyalar raqobatchilardan rivojlanish darajasi bo'yicha ancha oldinda bo'ladilar. Bu ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, yangi un navlarini yaratish va ozuqaviy profillarni yaxshilash uchun tadqiqotlarga sarmoya kiritishni o'z ichiga oladi. Innovatsion bo'lish kompaniyaning dinamik bozorda lokomotiv bo'lib qolishini ta'minlaydi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- Andrey Kutaev, Larisa Akifieva and Olga Zubrenkova. Problems and factors of grain production in the conditions of digital economy development// SHS Web of Conferences 141, 01017 (2022) MTDE 2022 <https://www.shs-conferences.org>
- H. Snyder. Flour milling problems//THE JOURNAL OF INDUSTRIAL AND ENGINEERING CHEMISTRY Vol. 8, No. IO. 937-p.
- "O'zdonmahsulot" AJ ma'lumotlari.
- "G'alla-Alteg" AJ ma'lumotlari.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

